

## PO’LAT SOLIYEVNING O’ZBEKISTON ILM-FAN RIVOJIGA QO’SHGAN HISSASI

*Ilmiy rahbar: Tarix fanlari nomzodi, dots:*

*Normurodova G.*

*Mehmonova Nasiba Safarali qizi*

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti O’zbekiston tarixi 4-bosqich 405-guruh talabasi:tel: 904580499

Po’lat Majidovich Soliyev 18882-yil 22-martda Astraxan guberniyasining Zazoravskiy bo’lisidagi Bashmakovka qishlog’ida o’ziga to’q dehqon oilasida tug’ilgan. Astraxan qadimdan O’rta Osiyodan Rossiyaga olib boradigan savdo yo’lining markazi bo’lib xizmat qilgan. Po’lat Soliyevning otasi uning avlodlari ma’lumotlariga qaraganda, Buxorodan bo’lgan. Bu oilaviy hikoyalar Po’lat Soliyevning e’tiborini yoshligidayoq jalb etgan edi va u kelajakda albatta o’z tarixiy Vataniga qaytib borishga ahd qiladi. Po’lat Soliyev onasidan erta ayriladi. Otasi ham taxminan 1919-yilda vafot etgan. U Qozondagi Madrasayi Muhammadiya va Ufadagi Madrasayi G’oliyani tugatadi. Madrasayi G’oliyada bitiruv imtihonlarini a’lo darajada topshirgan Po’lat Soliyevga u yerda mudarrislik qilish taklif etiladi, biroq u Turkistonga ajdodlari Vataniga qaytib, o’z xalqi ma’rifati yo’lida mehnat qilish niyatida ekanligini bildiradi va bu taklifga rad javobini beradi. Bir oz muddat ona qishlog’ida imomlik qilgach, Po’lat Soliyev 1909-yilda Turkistonga keladi va avval qishloqlarda, so’ngra Toshkent va Qo’qonda maktablarda tarix, arifmetika, ona tilidan beradi. [3;4; 7; 12;16; 19]. Po’lat Soliyev hozirgi Toshkent viloyati Oqqo’rg’on tumanida birinchilardan bo’lib yangi usulda o’qitiladigan maktabni ochadi. Yosh o’qituvchi bu kasbni davom ettirish maqsadida bir qancha tillarni turk, tojik va fors tillarini mukammal o’rganadi. Po’lat Soliyev ish jarayonida gazeta va jurnallar, qo’lyozma tarixiy kitoblarni varaqlashdan charchama, ayniqsa Turkiston tarixiga oid kitoblarni sevib o’qir ulardan ilg’or g’oyalarni o’z yaqinlari o’rtasida targ’ib qiladi. 1913-yilda Toshkentda birinchi rus-tatar maktabini ochadi. 1916-yilda u Bekobodga jo’naydi va bir yil davomida o’qituvchi bo’lib xizmat qiladi. keyin Qo’qonga kelib, ikki yil davomida ish olib boradi. Po’lat Soliyev 1914-yilda ilmiy safar bilan Toshkentga kelgan boshqird Ahmad Zakiy Validiy To’g’on (1890-1920) bilan tanishadi. Ikki marta Po’lat Soliyev Ahmad Zakiy Validiy bilan 1917-yilda Toshkentda bo’lib o’tgan Butun Turkiston musulmonlari qurultoyida uchrashadi. Po’lat Soliyev 1917-yil noyabrda Qo’qonda Turkiston Muxtoriyatini tashkil etishda faol ishtirok etadi. U Turkiston Milliy Majlisi a’zolaridan bo’lib, ulardan yangi turdagi bir hokimiyat shakllanmog’I lozim edi.

[ 5;6; 7; 15;] Shuningdek, u Qo'qon shahrida chop etiladigan, „El bayrog'I” gazetasida chop etilgan Turkiston Muxtoriyati hukumatining Murojaatnomasida shunday deyiladi: „ Inson qoni bilan sug'orilgan yer osmonda nido qilib tinchlik so'ramoqda, holdan toygan insoniyat xolsizlik bilan qilichini tushurmoqda, insoniy be'manilik, ilohiy oqilikka yo'l bermoqda”. Turkiston Muxtoriyati tormor qilingach, Po'lat Soliyev siyosiy faoliyatdan chetlanib, sovet muassasalarida ish olib boradi. 1918-yilda u Nazir To'raqulov bilan hamkorlikda Skobelev shahrida qishloq maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash kurslari tashkil etadi. 1919-yil boshida u Skobelevda chiqayotgan „Yangi Sharq” gazetasida tahrir hay'ati a'zosi sifatida ish olib boradi. 1919-yilning ikkinchi yarmidan boshlab, Ikkinchi davr madaniyati jadid davrida kengayib boradi. 1921 yildan bu dargoh o'zbek yerlari bilim yurti [instituti] deb atalgan. [78; 79; 83] . Bu yerda u o'qituvchilik bilan bir qatorda O'rta Osiyo tarixi bo'yicha ilmiy maqolalar yoza boshlaydi. Bundan tashqari, turli xil kurslar, ishchi fakultetlarida dars beradi. 1922 yildan Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining organi – „Inqilob” jurnali muharriri o'rinbosari, „Tong” jurnali muharriri bo'lib ishlaydi. „Agitprom” jurnalida o'z maqolalari bilan tez-tez chiqib turadi. Ana shu yillarda Po'lat Soliyev O'rta Osiyo aholisining ijtimoiy turmushi, etnografiyasini o'rganish uchun ko'plab ilmiy safarlarga chiqadi. Po'lat Soliyev o'sha yillarda keng tus olgan savdo kapitalining hal etuvchi roli haqidagi M.N. Pakrovskiy aqidalarini tan olib, savdo kapitali O'rta Osiyoda 12-13-asrlarda paydo bo'lgan. [ 15; 25; 35;]. Shuningdek, Po'lat Soliyev „Qur'oni Karim” kitobini ham o'zbek tiliga ilmiy sharhlar bilan tarjima qilgan edi. Ammo bu ishning samarasi ham dunyo yuzini ko'rmay NKVD xodimlari tomonidan yig'ishtirib olib ketiladi. Bu qo'lyozma hozirgi kunga qadar topilgani yo'q. „Sobiq” laqabli josusning xabarida P.Soliyevning Moskvadagi hayotiga oid ma'lumotlar bor. Unda P.Soliyevning Moskvada bo'lishi unga moddiy jihatdan qo'l kelgani, O'zbekiston Davlat nashriyoti va Moskvadagi Sharq xalqlari nashriyotlaridan ilmiy-adabiy asarlar tarjimalariga buyurtmalar tushib ajratilgan nafaqalar bilan qo'shib hisoblanganda 300 rubl atrofida mablag' olayotgani haqida uning o'ziga qayd etgan ma'lumotlar keltiriladi. 1927-yilda Po'lat Soliyevga dotsent, 1930-yilda esa professor unvoni beriladi. Moskvada u davlat arboblari T. Risqulov va N.To'raqulovlar tomonidan qo'llab quvvatlanadi. [45; 55; 67; 89;]. Po'lat Soliyev O'zbekiston XKS huzuridagi ilmiy markaz bilan tuzilgan shartnoma asosida 1927-yil 7-sentabrga qadar o'n bosma qog'oz hajmida o'zbeklarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti aks ettirilgan ma'lumotni „O'zbeklar tarixi” kitobi uchun topshirish majburiyatini oladi. Muallif bu asar ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgach, rus tarixchilarining o'zbeklarni qoloqlikda ayblashi, quruq gap bo'lib qoladi, deb umid qiladi. Shu orada Po'lat Soliyev Moskvada bo'lib, Fitrat bilan uning „O'zbek adabiyoti tarixi” asari xususida

maslahatlashish niyatini bildiradi. Uning fikricha Fitrat bilan u o'zi ishlayotgan asar bir-birlarini to'ldirishi, ayniqsa g'oyaviy jihatdan bir bo'lishi lozim edi. 1926-yilda Po'lat Soliyev O'rta Osiyo yozma yodgorliklari fondini tashkil etish va qadimiy qo'lyozmalarni to'plash uchun Moskvadan O'zbekistonga chaqirib olinadi. Po'lat Soliyev 1927-yilda Moskvadan O'zbekistonga butunlay qaytadi va poytaxt Samarqandga keladi. 1927-yilga qadar maktab o'qituvchilarini tayyorlovchi oliy o'quv yurti faqat bitta bo'lib, u O'rta Osiyo Davlat Universiteti edi. 1927-yil yanvarda Samarqand Oliy pedagogika instituti tashkil etiladi.. V.Vyatkin va P.Soliyev say-hatrakati bilan institutda sharq tarixi kafedrasini tashkil etiladi va Po'lat Soliyev uning mudiri etib tayinlanadi. 1930-yilda Samarqand Oliy Pedagogika Instituti O'zbekiston Pedagogika Akademiyasiga aylantiriladi. 1930-yil 28-sentabrda Po'lat Soliyev ana shu akademiyaning professori bo'ladi. Oliy maktablarga kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida 1931-yil yanvarda ushbu akademiya qoshida aspirantura tashkil etiladi. 1933-yilda Respublika hukumati qarori asosida O'zbekiston Pedagogika Akademiyasi O'zbekiston Davlat Universitetiga aylantiriladi. 1935-yilda tarix fakulteti O'zDU ning 7 ta fakulteti orasida eng to'laqonlisi, ilmiy-pedagogik kadrlar bilan ta'minlangan edi. [ 140; 145; 146]. Uning kafedralarida Po'lat Soliyev bilan birga professorlardan A.M. Krasnousov, S.A.Leskovskiy, S.V.Yushkov, M.Ya. Fenomenov, A. Makiyev, Fitrat, va O.Xoshimovlar dars beradilar. 1935-yil sentabrda esa O'z DU da O'rta Osiyo respublikalari ichida birinchi bo'lib, „O'rta Osiyo tarixi“ tarixi kafedrasini tashkil etiladi. 1932-1933-yillarda u Toshkentga revolyutsiya tarixi ilmiy-tadqiqot institutiga jo'natiladi. Respublika hukumati O'zbekistonning qadimgi davridan to o'sha kunlargacha bo'lgan tarixini markscha-lenincha nuqtayi nazardan yozishga qaror qiladi. Va Po'lat Solievga bu ishda bosh vazifa yuklatiladi. 1936 yilda P.Soliev Toshkentga butunlay kelib, O'z SSR MIK qoshida tashkil etilgan Fan komitetida ish olib borgan. Bu komitet keyinchalik O'zSSR XKS tasarrufiga berilgan bo'lib, P.Soliev unda O'zbekiston tarixi bo'limini boshqargan. Ayni paytda 1937-yil hibsga olinganiga qadar nafaqat Toshkent oliy o'quv yurtlarida, balki Samarqand, Farg'ona va Buxoroda ham bo'lib, ma'ruzalar o'qib turgan. 1937 –yil 25- mayida Samarqandda uzbek olimlarining 1-syezdi ochildi va „Pravda Vostoka“ gazetasida 27-kuni O'zSSR XKS raisi Fayzulla Xo'jaevni syezdga tabrik so'zi chop etildi. U respublika olimlari hamda Moskva, Leningraddan kelgan mehmonlarni ( syezd ishtirokchilari orasida Toshmuhammad Qori-Niyozov, Sadridin Ayniy, Ibrohim Mo'minov, Pavel Ivanovlar ham bo'lgan ) qutladi. Po'lat Soliyev ilmiy faoliyatidagi muhim hodisalardan biri bu umumlashgan asar „O'zbekiston tarixi“ ni yaratish bo'ldi. [ 145; 148; 167; 189;] Bu o'zbek xalqining ko'p yillik tarixidagi birinchi urinish bo'lib, qadimgi, o'rta asr va zamonaviy tarixchilarning turli xil asarlaridan va

boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni jamlash, umumlashtirishni taqozo etar edi. Po'lat Soliyev bu asarni taxminan 1935-yilda yozib tugatadi va qo'lyozma O'zbekiston Kompartiyasi MIK ning birinchi kotibi Akmal Ikromov raisligidagi komissiya tomonidan muhokama qilinadi. Afsuski, bu qo'lyozma nusxasi 1937-yilda Po'lat Soliyev hibsga olingach yo'qoladi. Po'lat Soliyev „O'zbekiston tarixi“ ni yaratish ustida 30-yillarning birinchi yarmida ish olib borgan edi. Tarixchi olim O'rta Osiyo tarixi masalalariga murojaat etar ekan, 1926-yilda o'zining yirik asarlaridan biri hisoblangan, „O'zbekiston ham Tojikiston“ nomli bosh asarini yaratadi. Po'lat Soliyevning ushbu asari qimmatli tarixiy manba bo'lib, asarda o'zbek, qozoq, qirg'iz va turkmanlarning ijtimoi-iqtisodiy hayoti, dehqonchiligi, ulardagi yer va suv masalalari, shuningdek Rossiya imperiyasining Turkistonni tayyor xomashyo bazasiga aylantirishga urinishlarini tasvirlaydi. Po'lat Soliyevning Buxorodagi ijodi asosan O'rta Osiyodagi eng qiziqarli va kam o'rganilgan davrlardan birini o'rganishga bag'ishlanib, ana shu davrda uning „Buxoro tarixi“ (Toshkent 1923) hamda „Mang'itlar saltanati davrida Buxoro o'lkasi“ (Toshkent 1925) nomli asarlari chop etiladi. Bu yerda taqdir unga har qanday tarixchi orzu qilishi mumkin bo'lgan ulkan sovg'a in'om etdi-Po'lat Soliyev Buxoro amirlarining boy kutubxonasi va arxivida birinchilar qatorida ishlash imkoniga ega edi. Keyinchalik unga Abdurauf Fitrat va Lutfulla Alaviy bilan birgalikda bu arxiv va kutubxonani saralab, ilmiy-tadqiqot institutiga topshirish uchun tayyorlash vazifasi yuklatiladi. „Inqilob“ jurnalining bir sonida bu arxiv va kutubxonadagi saralash ishlari haqida hisobot ham chop etilgan. 1921-1922-yillarda Po'lat Soliyev arab va fors-tojik tillarida yozilgan, Buxoroda saqlangan asarlar ustida tadqiqotlar olib boradi. 1924-yil avgustida Buxoro Maorif xalq nozirliги Po'lat Soliyevni Moskvaga Buxoro Maorif uyiga o'qituvchi sifatida jo'natiladi. 1924-yil oxiridan boshlab, u SSSR xalqlari Markaziy Nashriyotida ilmiy xodim, ayni shu ayni paytda qizil professorlar instituti va Sverdlov nomli kommunistik universitetda tinglovchi ham edi. 1920-yil 2-sentabrda Buxoroda Amirlik tuzumi ag'darib tashlanadi, [ 134; 143; 157;] 1920-yil 8-oktabrda xalq vakillarining I Umumbuxoro qurultoyi Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligini e'lon qiladi. 1920-yil 11-noyabrda BXSR Maorif nozirliги Buxoroda inqilob tarixiy nashr etish va uning mualliflarini tasdiqlash haqida qaror qilinadi. Po'lat Soliyev va Sadriddin Ayniy ham shu mualliflar qatoridan joy olgan. 1922-yildan boshlab, Po'lat Soliyev BXSR Maorif Nozirliгining Ilmiy kengashi raisi, ayni paytda o'qituvchilar, institutida arab adabiyoti tarixi, arab tili nazariyasi va amaliyotidan dars berib, „Maorif“ jurnalining muharriri sifatida ham ish olib boradi. Buxorodagi ilmiy muhit va turli safarlar unga katta imkoniyatlarni berdi. Olim Buxoro amirlarining boy kutubxonasida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi va bu kutubxona xazinasidan joy olgan nodir tarixiy manbalar bilan tanishadi.

Bu yerdagi minglab sharq qo'lyozmalari va asarlarini ko'rib, hayratda qoladi. Po'lat Soliyev Buxoro amirlarining qarorgohi bo'lgan Ark va boshqa joylarda bo'lib, Buxoroning o'tmishini, bu yerda umrguzaronlik qilgan xonlar, amirlarining shaxsiy hayotini o'rganib, qimmatli tarixiy ma'lumotlar to'playdi va yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, „Buxoro tarixi” (1923) asarlari mashhur bo'ladi. Po'lat Soliyevning „Mang'itlar saltanati davrida Buxoro o'lkasi” asarida Amir Nasrulloxon, Amir Muzaffarxon, Amir Abdulaxadxon davrlarini ham qisqacha bayon etiladi. Po'lat Soliyev 1937-yilda Sovet hokimiyati tomonidan qamoqqa olinib, o'sha yili 13-oktabrda Toshkent shahrida otib tashlanadi. Po'lat Soliyev millatchilikda ayblangan edi. U vafotidan so'ng 1956-yilda oqlangan. Samarqand shahridagi ko'chalardan biri bugungi kunda uning nomi bilan ataladi. Mustaqillik bizga Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni qayta uyg'otadi. Shuningdek, o'zbek xalqining tarixini, ota-bobolarimizning boy ilmiy me'rosini qayta o'rganish va o'rgatishga imkoniyat yaratadi. Mohir muarrif, sharq qo'lyozmalarining chuqur bilimdoni Po'lat Soliyevning nomi va ilmiy me'rosi mustaqilligimiz sharofati tufayli qayta hayot yuzini ko'radi. 2002-yili Toshkent va Samarqandda professor Po'lat Soliyev tavalludining 120 yilligi munosabati bilan tadbirlar bo'lib o'tadi. Qatag'on yillari qurboni bo'lgan Po'lat Soliyevning ilmiy-ijodiy faoliyatiga bag'ishlab ilmiy konferensiya o'tkaziladi. Konferensiyada professor Po'lat Soliyev bosib o'tgan ilmiy hayot yo'li olimning O'zbekiston tarixi faniga qo'shgan hissasi haqida fikrlar aytiladi. Tarixchi olim B. Germanov rus tilida „Po'lat Soliyev va u yashagan davr” nomli risolasini 2002-yilda nashr ettiriladi. Xulosa qilib aytganda Po'lat Soliyev nafaqat tarix ilmi uchun balki jadidchilik faoliyati rivojida ham xizmatlari katta.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar!**

1. Farrux Temirov. „Po'lat Soliyev” (Risola) Toshkent, „Abu Matbuot-Konsalt” 2011. 3; 4; 7; 12; 16; 19; betlar.
2. „Qatag'onga uchragan tarixchi olim” maqola. (Po'lat Soliyev tavalludining 140-yilligi) Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti professori tarix fanlari doktori Shokir G'afforov.
3. „Ma'rifatvarvar olim” T;2002. 78-79; 83 betlar.
4. B. Germanov. „Professor Pulat Saliyev I ego vremya”. Tashkent „Fan. 2002. 15; 25; 35-betlar.
5. G'ulomov Ya. Habib R. „Ulkan tarixshunos” „O'qituvchilar gazetasi”-N:38. 1967 yil 11-may. 45;55; 67; 89; betlar
6. Germanov V.A. „On umer v puti” „Zvezda postoka”. Toshkent:1993. N. 11-12. 140; 145; 146-bet
7. Rahmon Habib. „Professor Po'lat Soliyev”. „Ma'rifat”- 2004. !45; 148; 167; 189-bet.
8. Ergashev B. „Naslediye bratyev Saidjanovix”. „Pravda Vostoka” N.49. 134; 143; 157-bet
9. Internet materillari.
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz), [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz). [www.Hozir.org.uz](http://www.Hozir.org.uz).